



**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSİYALASH SHAROITIDA
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORİJI INVESTİTSİYALARNI KİCHIK SANOAT
ZONALARIGA YO'NALTIRISH İMKONİYATLARI**

Xalimjonov Dilshod Ergashbekovich

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0008-8676-7187

dilshod_halimjanov@mail.ru

Аннотация. Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror holda rivojlantirishga yordam beruvchi iqtisodiy siyosat xususiyatlarini ishlab chiqish va ularni real hayotga tubdan tatbiq etish kun sayin muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Iqtisodiyot tarmoq va sohalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshirish, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishga ilg'or xorijiy texnika va texnologiyalarni joriy etish ko'p jihatdan maxsus iqtisodiy hududlar, shu jumladan kichik sanoat zonalarini tashkil qilish bilan uzviy bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda, tanlangan tadqiqot mavzusi bugungi kun uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion siyosat, tuzilmaviy siyosat, sanoatlashtirish, modernizatsiya, xorijiy investitsiya, maxsus iqtisodiy hudud, sanoat zonası, kichik sanoat zonası, yoshlar sanoat zonası.

**ВОЗМОЖНОСТИ НАПРАВЛЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ
ИНВЕСТИЦИЙ В МАЛЫЕ ПРОМЫШЛЕННЫЕ ЗОНЫ В УСЛОВИЯХ
МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ**

Халимжанов Дишод Эргашбекович

Гулистанский государственный университет

Аннотация. На современном этапе развития мировой экономики с каждым днем все большее значение приобретает разработка особенностей экономической политики, способствующих социально-экономическому устойчивому развитию регионов, и их радикальное внедрение в реальную жизнь. Повышение возможностей привлечения прямых иностранных инвестиций в сферы и отрасли экономики, модернизация промышленных предприятий, внедрение в производство передовой зарубежной техники и технологий во многом связано с созданием особых экономических зон, в том числе малых промышленных. Исходя из этого, выбранная тема исследования приобретает актуальное значение на сегодняшний день.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная политика, структурная политика, индустриализация, модернизация, иностранные инвестиции, особая экономическая зона, промышленная зона, малая промышленная зона, молодежная промышленная зона.

OPPORTUNITIES FOR DIRECT FOREIGN INVESTMENT IN SMALL INDUSTRIAL ZONES IN THE CONTEXT OF ECONOMIC MODERNIZATION

Halimzhanov Dilshod Ergashbekovich
Gulistan State University

Abstract. At the present stage of the development of the world economy, the development of economic policy features that contribute to the socio-economic sustainable development of regions and their radical implementation into real life is becoming increasingly important every day. Increasing the possibilities of attracting foreign direct investment in the spheres and sectors of the economy, modernization of industrial enterprises, introduction of advanced foreign equipment and technologies into production is largely due to the creation of special economic zones, including small industrial ones. Based on this, the chosen research topic is becoming relevant today.

Key words: investments, investment policy, structural policy, industrialization, modernization, foreign investments, special economic zone, industrial zone, small industrial zone, youth industrial zone.

Kirish.

O'zbekistonda investitsiya va biznes muhitini takomillashtirish, bu boradagi to'siqlarni bartaraf etish borasida tizimli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston iqtisodiyoti keyingi yillarda 5-6 foiz atrofida o'sayotganligini ko'rish mumkin, xususan oxirgi yillarda respublikada 60 milliarda dollardan oshiq xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi, xalqaro moliya tashkilotlarining 14 milliard AQSh dollaridan oshiqroq mablag'lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga yo'naltirildi. O'zbekistonda 3-marta o'tkazilgan Toshkent xalqaro investitsiya forumida Prezident Sh. M. Mirziyoyev so'zlagan nutqida "bundan buyon ham O'zbekiston xorijiy investorlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatda erkin faoliyat yuritishlarini ta'minlash borasida islohotlarni davom ettirish yo'lidan borishini alohida ta'kidlab o'tdi" (Mirziyoyev, 2024).

Bu boradagi islohotlarni jadallashtirish, O'zbekistonni 2030 yilgacha bo'lgan muddatda daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga olib chiqish, iqtisodiyot tarmoq va sohalariga xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish borasida mamlakatda xorijiy investorlarga qator imkoniyat va imtiyozlar taqdim etib kelinmoqda. Hozirda O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jalb qilishda "yashil" energetika, bank-moliya sohasi, foydali qazilmalarni o'zlashtirish, iqtisodiyot soha va tarmoqlarini raqamlashtirish, transport infratuzilmasini rivojlantirishga ustuvorlik berilmoqda.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida 2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish va bunda asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash, shuningdek, mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarini o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarini jalb qilish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, maxsus iqtisodiy hududlar, sanoat zonalarining iqtisodiy salohiyatidan to'lig'icha foydalanish masalalari alohida o'rin olgan (Farmon, 2023). Yuqorida tilga olib o'tilgan jihatlar O'zbekiston hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish, mahalliy xomashyoga asoslangan sanoat ishlab chiqarishlarini kengaytirish, aholi, ayniqsa yoshlar bandigini ta'minlash maqsadida tashkil qilingan maxsus iqtisodiy hududlar, xususan kichik sanoat zonalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish masalalarini ilmiy jihatdan o'rganish asosida bu boradagi tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Rossiyalik mutaxassis Dragunova (2004) kichik sanoat korxonalarini tashkillashtirish hududning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda yo'lga qo'yilishini ta'kidlaydi, uning fikricha hududning iqtisodiy salohiyatini ishga solish, sanoatni rivojlantirish ko'p jihatdan sanoat zonalarini institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlashga bog'liq.

Turkiyalik mutaxassis Sarajoglu (2013) kichik sanoat zonalarini sanoatni investitsiyalash, sanoat loyihibarini amalga oshirishning o'ziga xos muqobili sifatida baholaydi.

Xitoylik olimlar Lutao, Fan, Li (2016) o'z tadqiqotlarida urbanizatsiya darajasini oshirish kichik sanoat zonalarini rivojlantirishga ko'p jihatdan bog'liq ekanligini iqtisodiy-matematik modellar yordamida ko'rsatib berishadi.

Agrar ishlab chiqarishdan industriallashtirishga o'tishda xorijiy mamlakatlar, xususan Vietnam tajribasi Atakurola (2010) tadqiqotlarida o'z aksini topgan, uning fikricha Vietnamda sanoatning rivoji ko'p jihatdan kichik sanoat zonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Xamroqulov (2024) kichik sanoat zonalarining investitsion faolligini oshirishda investitsiya resurslarini jalb qilishda hududlarda joylashgan kichik sanoat zonalari o'rtasida o'zaro yuqori darajada farqlanish mayjudligi; aksariyat kichik sanoat zonalarida investitsion resurslar bo'yicha iqtisodiy daromadlarning kamligi hisobiga kichik sanoat zonalarining rentabellik darajasi past bo'lib qolayotganligi; kichik sanoat zonalariga jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi kichik sanoat zonalarining investitsion salohiyatini to'liq namoyon etish imkoniyatini bermasligi kabi muammolar borligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi Yavmutov (2021) Buxoro viloyati misolida kichik sanoat zonalarini tashkil qilish muammolariga to'xtalib o'tadi va kichik sanoat zonalarining istiqboli ko'p jihatdan resurs va kadr ta'minotiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Yana bir tadqiqotchi Sakieva kichik sanoat zonalari faoliyatini baholashda muayyan bir ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishni taklif qiladi, uning fikricha yaratilgan ish o'rni va eksport tushumi asosiy mezon hisoblanadi (Sakieva, 2023).

Kichik sanoat zonalari va hududiy taraqqiyotning sinergiyasi masalalari Mannapova (2023) tomonidan tahlil qilingan va hududlarni sanoatlashtirish kichik sanoat zonasini faoliyatiga ko'p jihatdan bog'liqligi asoslangan.

Kichik sanoat zonalarini tashkil qilishning xorijiy tajribalari Arslonbekovning izlanishlarida o'z aksini topgan (Arslanbekova, 2023). Mahalliy mutaxassislardan yana biri Raxmonqulova hududlarni rivojlantirish va hududlarga investitsiyalarni jalb qilishda kichik sanoat zonalarining o'rnini yuqori baholaydi (Raxmonqulova, 2023).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda ilmiy abstraktsiya, dialektik tadqiqot, induktsiya va deduktsiya, maqsadli rivojlantirish, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash va iqtisodiy statistik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahonda sanoat tarmoqlarining rivojlanish jarayonlari yangi asrning boshlanishi bilan globallashuv jarayonlarining hamda milliy sanoat tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlar ta'sirida o'ziga xos o'zgarish tendentsiyalariga ega bo'lib bormoqda. Alovida mamlakatlar milliy sanoat tizimi rivojlanish darajasini barqarorlashtirish hamda yangi sanoat tarmoqlarini shakllantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun ma'lum bir engilliklarni taqdim etuvchi iqtisodiy hududlarni tashkil etib, ushbu hududlarda sanoatning mahsulotlariga talab yuqori bo'lgan yoki import o'rnini qoplovchi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlari tarkibiga kiruvchi sanoat korxonalarini tashkil etmoqdalar.

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda qo'llanilayotgan bunday yondashuvlar alovida tartibga ega bo'lgan hududlarning shakllanishi hamda bunday hududlarning faoliyatini

izohlovchi nazariy tushunchalarning asoslanishini talab etadi. Nazariy jihatdan alohida tartibga asosan faoliyat olib boruvchi iqtisodiy hududlar o‘z maqsadiga ko‘ra turli nomlar bilan nomlanadi va o‘zlarining farqli jihatlariga ko‘ra bunday hududlarda huquqiy-iqtisodiy tartib bir-biridan farqlanadi. Bugungi kunda jahonda hududlar va mintaqalar doirasida «erkin iqtisodiy zona»lar, «erkin savdo zona»lari, «sanoat zona»lari, «kichik sanoat zona»lari va boshqa nomlar bilan nomlanuvchi iqtisodiy hududlar shakllangan va faoliyat olib bormoqda.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, hududiy iqtisodiyotni rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri – kichik tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash, hududiy iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va ularni modernizatsiya qilish hamda bu orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda uzoq yillardan buyon iqtisodiy rivojlanishi jihatdan boshqa hududlarga nisbatan iqtisodiy salohiyati past bo‘lgan retsepient hududlarni innovatsion rivojlantirishda tobora ko‘proq foydlanib kelinayotgan usullardan biri – sanoat zonalarini barpo etish hisoblanadi.

Sanoat zonalarini shakllantirish, tashkil etish va rivojlantirish yo‘nalishida amalgam oshirilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, jahondagi ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning hududiy-iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy mexanizmlardan hisoblangan kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishida turli xil ko‘rinishdagi zanoat zonalari, texnopark va texnopolislarni tashkil etish hisoblanadi. “Hozirgi kunda AQSH va Xitoyda 400 tadan, Germaniyada 200 ta, Turkiyada 262 ta, Vietnamda 200 ga yaqin industrial parklar faoliyat yuritmoqda” (Smolyaninova, 2015).

Jahondagi nisbatan past darajada rivojlangan va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan hududlarda industrial parklar, texnopolislarni sanoat zonalarini tashkil etish orqali rivojlantirish, bu orqali iqtisodiy salohiyat va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, kichik sanoat zonalari joylashgan hududlardagi investitsion jozibadorlikni oshirish, shu asosda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hamda aholi bandligini oshirish yo‘nalishidagi muammolarni tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

1-jadval

Erkin iqtisodiy zona, Kichik sanoat zona va Yoshlar sanot va tadbirkorlik zonalarda 2023-yilda ishga tushgan loyihibar¹¹⁶

T/r	Hudud nomi	JAMI	EIZ	KSZ	YoSTZ
		Zonalar soni	EIZlar soni	KSZlar soni	YoSTZlar soni
	JAMI	766	24	532	210
1	Qoraqalpog’iston Respublikasi	51	3	31	17
2	Andijon viloyati	47	2	25	20
3	Buxoro viloyati	49	3	33	13
4	Jizzax viloyati	39	3	25	11
5	Qashqadaryo viloyati	58	1	42	15
6	Navoiy viloyati	29	1	17	11
7	Namangan viloyati	74	2	54	18
8	Samarqand viloyati	107	1	90	16
9	Sirdaryo viloyati	33	2	19	12
10	Surxondaryo viloyati	53	1	36	16
11	Toshkent viloyati	78	3	56	19
12	Farg‘ona viloyati	96	1	71	24
13	Xorazm viloyati	39	1	25	13
14	Toshkent shahri	13		8	5

¹¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini ushbu shakldagi tashkiliy tuzilmalar asosida rivojlantirishda kichik sanoat zonalarining mazmun-mohiyati va ilmiy asoslarini tashkil etuvchi ilmiy tadqiqotlar bilan tanishib o'tish o'rnlidir. Kichik sanoat zonalarini shakllantirish borasidagi turli mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, mazkur tushuncha alohida mamlakat va hududlarda turli nomlar bilan atab kelingan. Ularning umumiy mazmuni esa "sanoat zonalari", "industrial parklar", "texnopolislardan" kabi tushunchalar orqali ifodalilaniladi (1-jadval).

Sanoat zonalari ko'rinishidagi alohida tartib asosida rivojlanuvchi hududlarni rivojlantirish yo'nalishida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan Millberg va Amengual (2008) tomonidan olib borilgan izlanishlarda industrial parklar faoliyati iqtisodiy jihatdan "qolq" hududlar uchun yaxshi "motivatsiya" vazifasini o'taydi. Ularning fikricha, industrial (sanoat) parklar – iqtisodiy rivojlanish uchun ajratilgan kichik ishlab chiqarish maydonlari bo'lib, ularning qulayligi maxsus iqtisodiy yoki erkin iqtisodiy zonalar singari yirik ishlab chiqarish infratuzilmasini talab etmasdan tashkil etiladi.

Shuningdek, ular industrial parklar faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni jalg etishda mahalliy davlat organlarining faol aralashuvini alohida ta'kidlab, bu jarayon "minimallashtirilishi kerak"ligini alohida qayd etib o'tishadi. Mazkur olimlarning tadqiqotlari kichik sanoat zonalarini tashkil etishda muhim o'rinni tutishi bilan birgalikda, ularning tadqiqotlarida kichik sanoat zonalarini uchun zaruriy infratuzilmani xorijiy investorlarning o'zlarini tomonidan shakllantirilishiga alohida urg'u berilgan. Biroq, bu borada rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, sanoat zonalarini uchun zaruriy infratuzilma davlat tomonidan taqdim etilmagan hollarda sanoat zonalarining tadbirkorlik sub'yektlari va investorlarni o'ziga jalg etish darajasi yuqori bo'lmaydi. Bu, o'z navbatida, Millberg va Amengual (2008) tomonidan sanoat zonalarining jozibadorligini yetarli darajada hisobga olmaganliklarini ko'rsatadi.

Tadqiqotchi Agarvalning (2007) tadqiqot natijalarida sanoat zonalarining, xususan kichik biznes vakillari uchun mo'ljallangan sanoat zonalarining hududiy bankdlikni ta'minlashda va inson resurslarini rivojlantirishdagi o'rniga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, uning tadqiqotlarida maxsus sanoat zonalarining "kichiklashtirilgan" variantlari nisbatan past rivojlangan hududlarning aholi zich istiqomat qiladigan joylari uchun samarali hisoblanishi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur hududlarda malakali bo'limgan arzon ishchi kuchini o'qitish mazkazi (ushbu sanoat zonalarining o'zida tashkil etilishi mumkin bo'lgan) orqali ularning malakasi ishchi kuchi sifatida qayta tayyorlanib, iqtisodiy faol qatlam shakllantiriladi. SHuningdek, ushbu sanoat zonalarining iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishda faqatgina xorijiy investorlar emas, balki mahalliy tadbirkorlar va sarmoya egalarining imkoniyatlaridan faol foydalanish mumkin. Bunda ularda soliq, ma'muriy va boshqa keng ko'lamli, hatto xorijiy investorlar uchun maxsus "viza rejimlari" joriy etilib, maxsus iqtisodiy hududlarning kapitallashuv imkoniyatlarni oshirish kerak (Agarval,2007).

Hududlarda sanoat tarmoqlarini maxsus tartibga ega hududlar negizida rivojlantirish borasida xorijilik olimlar bilan bir qatorda mamlakatimiz tadqiqotchilari tomonidan ham bir qator nazariy hamda amaliy izlanishlar olib borilgan.

Sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirishda maxsus iqtisodiy hududlarni joriy etish yo'nalishida tadqiqotlar olib borgan J.Karimqulov tomonidan erkin iqtisodiy zonalarning muayyan bir turi sifatida kichik sanoat zonalarini bo'sh turgan yoki foydalilmayotgan bino va inshootlar negizida barpo etilayotgan kichik sanoat zonalar davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklikning nodir namunasi sifatida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, yangi ish o'rnlari barpo etish, eksport salohiyatini oshirishda qo'l kelishi ta'kidlanadi. J.Karimqulovning asosiy tadqiqotlari erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni rivojlantirish yo'nalishida bo'lib, kichik sanoat zonalarini faoliyatiga umumiy yondashilgan, ularning investitsion imkoniyatlari yetarlicha yoritilmaganligi bois, kichik sanoat zonalarining investitsion faoliyatini oshirishda ilmiy izlanishlar olib borish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Yana bir tadqiqotchi – R.Yuldashevning tadqiqotlarida kichik biznes sub'yeclari faoliyatini rag'batlantirishda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va tadbirkorlar faoliyatini ushbu maxsus iqtisodiy hududlar uchun belgilangan engilliklar vositasida rag'batlantirish tarmoqning jadal sur'atlarda rivojlantirish imkoniyatlari o'rganilgan.

Tez o'zgaruvchan, hamisha yangilikka o'ch bozor talablarini birinchilar qatorida ilg'ab olib, iste'molchiga zarur tovar va xizmatlarni taklif etishi barobarida tavakkalchiliklarni oson boshqarish, turli iqtisodiy tebranishlardan omon qolish imkoniyatiga egaligi "kichik iqtisodiyot"ning asosiy afzalliklari hisoblanadi. Bu o'rinda bir tomonidan alohida rejimdagi iqtisodiy hududlarda faoliyat ko'rsatuvchi kichik ishlab chiqaruvchilarining zarur infratuzilmaga ega ishlab chiqarish maydonchalari bilan ta'minlanishi, boshqa tomonidan ular o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasining chuqurlashuviga xizmat qilayotgan kichik sanoat zonalarining ahamiyati tobora ortib borayotganini qayd etish joiz.

Bo'sh turgan yoki foydalanimayotgan bino va inshootlar negizida barpo etilayotgan kichik sanoat zonalari davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklikning samarali bog'lanishi ko'rinishida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, yangi ish o'rnlari barpo etish, eksport salohiyatini oshirishda qo'l kelmoqda.

SHunday qilib, yirik sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar "kichik iqtisodiyot"ning zarur xomashyo resurslari bilan ta'minlanishiga zamin yaratadi. Demak, kichik sanoat zonalari faoliyatini kengaytirish hamda ularning ishtirokchilarini rag'batlantirish mexanizmlarining takomillashtirilishi milliy iqtisodiyotning raqobatbardosh-ligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi (Yuldashev, 2017).

R.Yuldashevning tadqiqotlari kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda sanoat zonalarining tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lsada, unda O'zbekiston iqtisodiyotida kichik sanoat zonalarining tutgan o'rni va ahamiyati atroflicha ochib berilishiga qaramasdan, kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy o'sishga ta'siri e'tibordan chetda qolgan.

Tadqiqotchi M.Raimjanovaning olib borgan izlanishlarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi holati, ularga kiritilayotgan investitsiyalar, ajratilayotgan kreditlar tahlili yoritilgan hamda kichik biznesni rivojlantirish yuzasidan xorij tajribasi o'rganilib tegishli xulosa va takliflar keltirilgan. Ushbu tadqiqotlarda kichik sanoat zonalari faoliyatini rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda tashkil etish ko'rib chiqilgan (Raimjonova,2017).

Xususan, M.Raimjanova o'z fikrini rivojlangan davlatlardan biri – AQSHda tashkil etilgan kichik biznes vakillari uchun mo'ljallangan "tadbirkorlik hududlari" misolida ko'rib o'tgan. AQSHda tadbirkorlik hududlari moliyaviy imtiyozlar berish orqali kichik va o'rta biznesni jonlantirishga qaratilgan mintaqaviy siyosatning neokonservativ variantining mahsuli sifatida vujudga kelgan.

Tadqiqotchi Mannapovning (2024) ilmiy izlanishlarida mamlakatimizda kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirish bilan bog'liq masalalar o'rganilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlarda kichik sanoat zonalari faoliyat samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalar umumiy holda qisman tadqiq etilgan, xolos.

Mamlakatimizda kichik sanoat zonalarini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari tadqiqotchilar B.T.Salimov va B.B.Salimovlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan bo'lib, ularning izlanishlarida kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish tavsiya etiladi:

kichik sanoat zonalarida kichik biznes sub'yeclariga umumiy xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar (yagona omborxona xizmati, transport xizmati, uskuna va texnologiyalarni ta'mirlash xizmati, ta'minot xizmati, qo'riqlash xizmati va boshqalar)ni tashkil etish qo'shimcha samaraga olib keladi;

2-jadval

**“Kichik sanoat zonası” atamasi elementlarini o’zida
mujassamlashtirgan tushunchalar tavsifi¹¹⁷**

Tushuncha	Tushunchaning mazmuni
Industrial park	Industrial park alohida ishlab chiqarish kompleksi bo’lib, yagona rivojlanish kontseptsiyasi va infratuzulmasiga ega yo’nalish bo'yicha xizmat ko'rsatish va samarali ishlab chiqarishni boshqaruv kompaniyasi tomonidan ta'minlanuvchi, faoliyati davlat tomonidan kafolatlanuvchi va imtiyoz olish imkoniyatiga ega mintqa iqtisodiyotining hududiy tarkibiy elementi tushuniladi.
Sanoat zonası	Sanoat zonasining industrial parkdan farqi shundaki, bu yerda ilgari sanoat va boshqa yordamchi ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritgan, keyinchalik qisman yoki butunlay faoliyatini to'xtatgan, lekin yer maydoni, ishlab chiqarish binolari va ma'lum darajada infratuzilma elementlari saqlanib qolgan. Bunday hududlarda ishlab chiqarish zonalarini tashkil etish ko'zda tutilgan.
Klaster	Klaster innovatsion faol bo'lgan korxonalarning doimiy kontsentratsiyalashib borishidir. Innovatsion faollik, firma va korxonalar faoliyatlarini innovatsion rivojlanishga yo'naltirilishini nazarda tutadi. Klasterlarga oid monografik tadqiqotlarda tashkilotlarning muayyan faoliyat sohasiga ko'ra geografik kontsentratsiyalashuvi klasterlarning umumiy belgisi sifatida ajratib ko'rsatiladi.
Kichik sanoat zonası	Kichik sanoat zonası – sanoat sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yeqtalarini tanlov asosida joylashtirishga mo'ljallangan va samarali rivojlanishini ta'minlovchi, davlat imtiyozi va kafolatini olish imkoniyatini beruvchi, past rentabelli va iqtisodiy nochor korxonalarning foydalanilmayotgan davlat mulki hisoblangan bo'sh yer maydonlarini o'z ichiga oluvchi zarur infratuzilmaga ega hudud.

kichik sanoat zonalaridagi tadbirkorlik sub'yeqtleri o'rtasida kooperatsiyani yo'lga qo'yish ham sinergiya samarasiga olib keladi, boshqa tomonidan, har bir tadbirkorlik sub'yekti amalga oshira olmaydigan yirik loyihalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Masalan, qimmatbaho yangi uskuna yoki texnologiyani sotib olish, eksportni qo'llab-quvvatlash, qo'shimcha ishlab chiqrish tsexlarini tashkil etish, logistika xizmatlarini kengaytirish singari masalalar hamkorlikda amalga oshirilishi yaxshi samara beradi (Salimov, 2020).

Shuningdek, ushbu tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik sanoat zonasini tafsiflovchi boshqa yondosh tushunchalardan foydalanilganligini ko'ramiz, ya'ni ular “sanoat zonası”, “industrial zona”, “industrial park”, “sanoat kompleksi va klaster” ta'riflari ko'rib o'tilgan. Mazmuman va ko'plab xorijiy davlatlarda ushbu hududlarga kichik tadbirkorlik vakillari uchun ishlab chiqarishni tizimli tashkil etish va innovatsion va investitsiya loyihalarini realizatsiya qilishga qaratilgan faoliyat yuritilishi rejalashtirilganligi bois “norasmiy” kichik sanoat zonalarini hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, ushbu hududlar mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga mos ravishda ishlab chiqarishni hududlarda rivojlantirish maqsadida tuzilgan. Ularda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat zonalarining ayrim elementlari mavjudligini hisobga olsak, ushbu tushunchalar tafsifini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir (2-jadval).

Yuqoridagilardan tashqari, mamlakatimizda kichik sanoat zonalarining huquqiy asoslari ham shakllantirilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 iyundagi “Kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4363-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagи

¹¹⁷ muallif tomonidan shakllantirilgan

"Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 134-sonli qarorlari muhim ahamiyatga ega (Nizom, 2020).

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi 134-son bilan tasdiqlangan "Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi Nizom"ga ko'ra, "kichik sanoat zonasi – ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, aholi punkti hududining yoki aholi punktlariaro hududning qonun hujjatlari bilan muayyan maqom berilgan hamda hududi doirasida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaga ega bo'lgan ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan qismi" hisoblanadi (VMQ-134, 2020).

Xorijiy va mahalliy manbalardan o'rganilgan ma'lumotlarga tayangan holda aytib o'tish mumkinki, kichik sanoat zonalari – alohida hududlarni hududiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlantirish, kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda xorijiy va mahalliy investorlar mablag'larini jalb etishga qaratilgan, aniq chegaralari belgilangan va soliq, bojxona imtiyozli rejimi amal qiladigan hududdir.

Yuqorida anqlik kiritilgan ta'rifga asoslangan holda kichik sanoat zonalarining asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Ma'muriy-hududiy qonunchilik talablariga muvofiq chegaralari aniq shakllantirilgan bo'ladi;

2. Maxsus va erkin iqtisodiy zonalardan farqli ravishda kichik biznes faoliyatini sanoat yo'nalishida aniq aholi punktlarida rivojlantirish maqsadida shakllantiriladi;

3. Kichik sanoat zonalarini tashkil etishning boshlang'ich etaplarida mahalliy investorlarning kapitalini bo'sh turgan maydon yoki binolar negizida tashkil etish orqali tashkiliy jarayon amalga oshiriladi;

4. Kichik sanoat zonalari hududida soliq, bojxona va boshqa imtiyozlarni jamlagan rejim amal qilgan holda hududda faoliyatni amalga oshiruvchi ishtirokchilar uchun qo'shimcha imtiyozli rejim yaratiladi;

5. Kichik hududlarda ishsizlik darajasini pasaytirish, biznes faoliyatidan tashqarida bo'lgan bo'sh bino va ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanish orqali sanoatning muayyan tarmoqlarini innovatsion asosda rivojlantirishga qaratilgan maqsadlarni o'zida jamlaydi.

Yuqorida amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlarga tayangan holda aytish mumkinki, mamlakatimiz hududlarida sanoat tarmoqlarini shakllantirish, ularni innovatsion asosda rivojlanishini ta'minlash hamda hududlarda aholi bandligi darajasini oshirish uchun yangi ish o'rinalarini yaratishga qaratilgan keng qamrovli faoliyat yo'nalishlaridan biri kichik sanoat zonalarini rivojlantirish hisoblanadi.

Bugungi kungacha olib borilgan tadqiqotlar kichik sanoat zonalarining umumiyligi faoliyatiga qaratilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlarda kichik sanoat zonalarining faoliyat samaradorligini oshirish va rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. SHu bilan birga ushbu tadqiqotlarda kichik sanoat zonalarining faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar yetarli darajada o'rganilmagan bo'lib, aynan ushbu omillar kichik sanoat zonasining kelgusidagi rivojlanishida asosiy ahamiyat kasb etuvchi jihatlardan hisoblanadi. Kichik sanoat zonalarining faoliyat smaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tadqiqot ishining navbatdagi qismlarida batafsil ko'rib o'tiladi.

Kichik sanoat zonalari turli mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishida turlicha ahamiyat kasb etganligi bois ushbu sanoat zonasining turli elementlarini o'zida mujassam etgan hududlar, ya'ni "sanoat zonalari", "industrial parklar", "klasterlar" faoliyati rivojlanib ulgurdi. Ushbu hududlar o'z funktsional yo'nalishidan kelib chiqqan holda, yaxlit ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirgan holda investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan.

O'zbekistonda ham bo'sh turgan va foydlanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari o'rnida tashkil etilgan va bugungi kunda investitsiya loyihalari asosida faoliyat olib borayotgan kichik sanoat zonalari mavjud. Ular hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim

o'rin egallaydi. Bundan tashqari, ushbu hududlar "kichik sanoat zonalari" hisoblangani sababli, bozor iqtisodiyoti talablariga tezda moslashishi bilan ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda sanoatni samarali rivojlantirish yo'nalishlaridan biri kichik sanoat zonalari (KSZ) hisoblanadi. KSZ davlat mulki ob'yektlarining foydalanilmayotgan maydonlari, zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va past rentabelli korxonalarining ishlatilmayotgan hududlari negizida yaratilmoqda. KSZlar davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni real qo'llab-quvvatlash va ularni rivojlantirishni yangi yuqori bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

KSZ tushunchasi va undan amaliyotda foydalanish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2014 yil 31 dekabrdagi 378-sonli qarori qabul qilinganidan keyin paydo bo'ldi. Hozircha KSZlar to'g'risida darslik yoki monografiya mavjud emas. Internet saytlarida juda ko'p maqolalar e'lon qilingan bo'lsa-da, ularning deyarli ko'pchiligi ommabop xarakterga ega bo'lib, ularda KSZlarni barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari nazariy jihatdan o'rganilmagan. SHu sababli, hozirgi kunda KSZning ta'rifi ham aniq berilmagan desak, to'g'ri bo'ladi.

KSZlar asosan shaharlarda joylashishini e'tiborga olsak, ularni xomashyo bilan ta'minlash, ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'siri, KSZlarning transport omili va boshqa omillarni hisobga olganda, shahar hududida ko'p turdag'i ishlab chiqarish ob'yektlarini KSZda joylashtirish ma'lum qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Bu yerda, fikrimizcha, KSZlarning joylashuviga qarab (shahar o'rtasida yoki shahar chetida), ularning qaysi mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashuviga qarab ishni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari, tikuv tsexlari va ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan ishlab chiqarishni shahar ichidagi KSZlarda joylashtirishni maqsadga muvofiq deb o'yaymiz.

KBXT sub'yektlarining tanlov asosida KSZga joylashtirish, birinchidan, davlatning sanoat siyosatini amalga oshirish imkonini yaratadi; ikkinchidan, KSZning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Uchinchidan, hududning xomashyo, mehnat va moliya resurslari ishlab chiqarish jarayoniga jalb etiladi; to'rtinchidan, hududdagi korxonalar o'rtasida kooperatsion aloqalar kuchayadi va bu, o'z navbatida, sinergetik samaraga olib keladi.

KSZlarni barpo etishning asosiy vazifalari:

- Hududlarda bo'sh yotgan yer va binolardan sanoat ishlab chiqarishda foydalanish.
- Sanoat ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish.
- Yangi qo'shimcha ish o'rinalini yaratish.
- Hudud rahbarlarining sanoat siyosatini amalga oshirish (sanoat mahsulotlarining ustuvor turlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish).

• KSZlarning investitsion jozibadorligini oshirish orqali zonaga ilg'or texnologiyaga asoslangan, raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yuvchi KBXT sub'yektlarini jalb etish.

• Xorij investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarini zonaga jalb etish. Zonadagi korxonalar o'rtasida va hududda joylashgan boshqa korxonalar o'rtasida kooperatsion aloqalarni rivojlantirish, zonada sanoat klasterlari shakllanishiga sharoit yaratish.

KSZlarda sanoat ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish juda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra, sanoat mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Sanoatning rivojlanishi qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, engil sanoat, qolaversa qolgan barcha tarmoq va sohalarning rivojlanishiga turtki beradi, aholini ish bilan ta'minlaydi va daromadini oshiradi.

Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish, ishlabchiqarishni ilg'or texnologiya va innovatsiyalar asosida rivojlantirish va ilmsig'imli, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda industrial zona, park, sanoat zonalarining ahamiyati, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra, yildan-yilga ortib bormoqda. Bunday sanoat

ishlab chiqarish tuzilmalari AQSHda va Yevropa Ittifoqi davlatlarida industrial park, Rossiya Federatsiyasida industrial parklar, zonalar va sanoat zonalari, Italiyada sanoat okruglari, klasterlar, Xitoy Xalq Respublikasidasanoat rayonlari va zonalari sifatida keng tarqalgan.

Sotish bozorlarini egallashdagi raqobatning ortib borishi sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashning asosiy yo'li industrial park, zona va sanoat zonalari bo'lib qolmoqda. Bularning umumiy tomonlaridan biri, xorijiy tajribadan ma'lumki, ularda ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot muassasasi, tajribali konstruktiv ishlanmalar bilan bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Malakali kadrlar bilan ta'minlash masalasi ham kadrlar tayyorlash agentliklari va oliy o'quv yurtlari bilan qat'iy aloqalarning o'rnatilishi orqali to'g'ri yo'lga qo'yilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni samarali rivojlantirishda innovatsion biznes, ya'ni texnopark va biznes inkubatorlarga ham katta e'tibor berilmoqda. Umumiy tomoni, ularni tashkil etish va rivojlantirish davlat va mahalliy hokimiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

3-jadval

Industrial parklarni moliyalashtirish mexanizmlari (Некрасова, Свиридов, 2017)

Industrial park turlari	Yer, mulk egasi	Infratuzilma
Davlat grinfildi	Yer maydoni davlat yoki munitsipal mulki	Infratuzilma davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi
Xususiy grinfeld	Yer maydoni xususiy mulk yoki loyihami amalga oshiruvchi tomonidan ijara qilingan	Infratuzilma xususiy mulk hisobidan moliyalashtiriladi, lekindavlat subsidiyasidan foydalanish mumkin
Aralash grinfeld	Yer maydoni, aktsionerlik jamiyati mulki. Aktsiyalar davlat va xususiy sektor tomonidan bo'libolangan. Obyektlar davlat-xususiy sektor mablag'i hisobidan sherikchilik asosida barpo etiladi	Infratuzilma ob'yektlari davlat-xususiy sektor sherikchiligidagi moliyalashtiriladi. Obyektlarning bir qismi xususiy sektor tomonidan moliyalashtiriladi
Davlat braunfildi	Yer maydoni, infratuzilma ob'yektlari, binolar, inshootlar davlat mulki hisoblanadi	Industrial parkni rivojlantirish, obyektlarni qayta tiklash, infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish davlat byudjeti mablag'i hisobidan amalga oshiriladi
Xususiy braunfild	Yer maydoni va undagibarcha ob'yektlar xususiy mulk hisoblanadi	Infratuzilma xususiy mulk hisobidan moliyalashtiriladi, davlat subsidiyasidan foydalanish mumkin

Yuqorida keltirilgan tuzilmalar tashkil etilishidagi o'ziga xos xususiyatlardan bilan respublikamizda barpo etilayotgan KSZlardan mutlaq ajralib turadi. Lekin rivojlangan xorijiy davlatlarda ushbu tuzilmalarni barpo etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tajribasi, davlat va xususiy sektor sherikchiligi tajribasini respublikamizda hududiy sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish va KSZlarni barpo etish va rivojlantirishda, sharoitga moslashtirilgan holda foydalansha, foydadan xoli bo'lmasdi.

Industrial parklar xalqaro tasnifga ko'ra ikki turga bo'linadi

Grinfeld – hech narsa qurilmagan yer maydoni;

Braunfild – muhandislik va transport kommunikatsiyalari, infratuzilma ob'yektlari, ishlab chiqarish binolari qurilgan yer maydoni.

Grinfildlar ham uch turga bo'linadi: davlat grinfildi, xususiy grinfeld va aralash grinfeld. Grinfeld loyihasiga ko'ra, park yangi, ilgari hech qanday ishlab chiqarish joylashmagan yer maydonida tashkil qilinadi. Ustun tomoni: bino, inshootlar buyurtmachi talabiga mos holda quriladi. Braunfildlar esa davlat braunfildi va xususiy braunfild turlariga bo'linadi. Grinfeld va braunfildlarni moliyalashtirish mexanizmlari 3-jadvalda keltirilgan.

Industrial parklarning barpo etilishi mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi, mintaqadagi ijtimoiy masalalarni hal etishga olib keladi. Industrial parklarning barpo etilishi mintaqaga investitsiyani jalg etish va sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning eng yaxshi usuli sifatida o'rganish mumkin. Mintaqadagi davlat organlari industrial park orqali mintaqaga katta investitsion loyiha olib kiruvchi yirik kompaniyalarini jalg etishga harakat qiladi. Industrial park barpo etishning o'zi juda katta investitsiya talab etadi, bundan tashqari, park hududi infratuzilmasini shakkantirishga to'g'ri keladi. Industrial parklar barpo etilishi mintaqalarni iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi, mintaqadagi ijtimoiy masalalarni hal etishga olib keladi.

Industrial parklarni barpo etishga bo'lgan asosiy to'siq: qatnashchilarda moliya resurslarining etishmasligi. SHuning uchun ham bu muammoni hal etishda federal va mintaqaga hokimiyat organlari parkda joylashuvchi kompaniyalarini qo'llab-quvvatlashiga zarurat tug'iladi va bu yerda davlat va biznes bирgalikda samarali harakat qilishiga to'g'ri keladi. Rossiya Federatsiyasida o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, park infratuzilma bilan ta'minlangan bo'lsa, korxonalar 20 foizgacha infratuzilma ob'yektlariga sarflanuvchi xarajatlarni tejaydi. Investorlar ko'p hollarda zona infratuzilma bilan ta'minlangan bo'lmasa, boshqa infratuzilma ob'yektlari qurilgan mintaqaga ketishi mumkin. Bunday holat mintaqaga hokimiyat organlarini zona hududini kerakli qurilmalar bilan ta'minlashda faol harakat qilishga undaydi.

Industrial zonalarni barpo etishning samarali usullaridan biri – davlat-xususiy sektor sherikchiligi. Davlat-xususiy sektor sherikchiligi (DXSSH, ingliz tilida: PPP – Publik Private Partnership) bu davlat bilan xususiy sektor o'rtasida hamkorlik qilish shakli bo'lib, u muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga qaratilgan.

V.G.Varnavskiy tomonidan DXSSHning shartnoma va kontsessiya shakli taklif etilgan. SHartnoma shaklida ijtimoiy muhim loyihalarni amalga oshirishda xususiy biznesni jalg etish nazarda tutilgan, bunda mas'uliyat davlat organlari zimmasida bo'ladi (Varnavskiy, 2015).

Kontsessiya – kelishuv shaklida davlat bilan xususiy kompaniya o'rtasida kelishuv tuziladi va unda kelishilgan shartlarga ko'ra foydalanish uchun korxona yoki yer maydoni, shu bilan birga bino va inshootlar qurish huquqi beriladi. DXSSHning huquqiy bazasi maxsus ishlab chiqilgan davlat qonuni hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasida DXSSHning huquqiy asosini "Rossiya Federatsiyasida davlat xususiy sherikligi asoslari to'g'risida"gi qonuni tashkil etadi.

DXSSHning institutlari sifatida banklar, investitsion fondlar, davlat kompaniyalarini o'rjaniladi. DXSSHning instrumentlariga quyidagilarni kiritish mumkin: kontsessiya kelishuv, byudjetdan foydalanish bo'yicha investitsion kelishuv. DXSSHning kontsessiya shaklidan ko'proq infratuzilma loyihalarni amalga oshirishda foydalaniladi. Masalan, ijtimoiy, kommunal, transport va energetika sohalarida.

Kontsessiya xususiy mablag'ni loyiha tortish orqali byudjet mablag'ining qisqarishiga olib kelsa, ikkinchi tomonidan, zamonaviy, ilg'or, qimmat texnologiyani loyiha kiritish orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi.

Boshqa tomonidan, shartnoma xususiy sektor va davlatning o'zaro vazifalari, mas'uliyatini aniq belgilaydi, shu bilan birga, xususiy investitsiyani himoya qilishni ta'minlaydi.

Turkiyada sanoat zonalari – tashkil etilgan sanoat zonalari debyuritiladi. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida yuzlab kichik biznes sub'yektlari yagona sanoat zonasiga birlashtiriladi, lekin ularning yuridik va iqtisodiy mustaqilligi saqlanib qolindadi. Tashkil etilgan sanoat zonalarini barpo etish bo'yicha qarorni davlat organlari tarmoq uyushmalariva mahalliy tadbirkor uyushmasi bilan bирgalikda qabul qiladi. Loyihalar davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlanadi, moliyaviy ta'minoti davlat mablag'i yoki xususiy mablag' hisobidan amalga oshiriladi. Bo'lajak bino, inshootlar va tsex xonalarini qurish maxsus firmalar tomonidan amalga oshiriladi, qurilib bitgan bino va xonalar kichik korxonalarga sotiladi.

Loyihaga ko'ra, tashkil etilgan sanoat zonalarida ximiya laboratoriyalari, ustaxona, o'quv markazi, ijtimoiy ob'yektlarni qurish ham ko'zda tutilgan. Zona maxsus tashkil etilgan firma

tomonidan boshqariladi va uning asosiy vazifasi – infratuzilma ob'yektlari va texnik xizmat faoliyatini tashkil etish.

Turkiyada birinchilar qatorida tashkil etilgan sanoat zonasiga misol sifatida Istanbul shahriga yaqin joylashgan Tuzla zonasini keltirish mumkin. Zona charm buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Unda 223 ta kompaniya charmni qayta ishlash bilan shug'ullanadi, 150 ta firma esa charm mahsulotlari uchun qismlar ishlab chiqaradi. Infratuzilma ob'yektlarining 90 foizi davlat mablag'i hisobidan moliyalashtirilgan, qolgan 10 foizi bank krediti va shu zonada keljakda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar mablag'i hisobidan moliyalashtirilgan.

KSZlarda asosan KBXT sub'yektlari joylashgani uchun ularni mavjud ishlab chiqarish binolarida joylashtirish osonroq va bu kam xarajatlar bilan xonalarni ishlab chiqrishga moslashtirish imkonini beradi.

Industrial parklarga xizmat ko'rsatish ham turlicha. SHu sababli industrial parklarga ko'rsatiladigan xizmatlarni ham tahlil qilish maqsadgamuvofiq deb o'ylaymiz.

Vetnamda industrial park rezidentlariga ko'rsatiluvchi xizmatlar turiga quydagiilarni kiritish mumkin: sifatli infratuzilma xizmati; logistika xizmati; tayyor sanoat binolari; zona hududlarida bojxona posti. Bulardan tashqari, zona aniq ustuvor yo'naliishlarga ega va ixtisoslashgan.

Sloveniyadagi "Chemro" industrial park o'z rezidentlariga bir qator xizmatlar ko'rsatadi, jumladan: sanoat oqava suvlarini tozalash; texnik xizmat ko'rsatish; sanoat chiqindilarini utilizatsiya qilish; ximiya laboratoriya xizmati; telekommunikatsiya va pochta xizmati; sanoat ob'yektlarini loyihalashtirish; qurilish ishlari xizmati; kompyuterxizmati; oshxona va bufetlar.

Milton Park (Angliya) o'z hududida quydagi infratuzilma xizmatlarini yo'lga qo'yan: kafe-restoranlar, minisupermarket, badiiy gimnastika xizmati, basseyn, sauna, go'zallik saloni, avtomobil servisi, elektrichka va asosiy magistralga chiqish yo'llari, bolalar bog'chasi, pochta, kimyoviy tozalash, saqlash kamerasi xizmati, kechayu kunduz internetga bepul kirish xizmati (Wi-Fi).

Industrial park ZETA (Kosta Rika) quydagi xizmatlarni ko'rsatadi: ishchi kuchi zaxirasi va ma'lumotlar bazasi, o'quv markazi, bojxona xizmati, ma'muriy yordam, qo'riqlash xizmati, internet xizmati, umumi texnik xizmat ko'rsatish, tozalash inshootlari, park ishchilari uchun arzon uy- joy, avtomobil qo'yish shaxobchasi, sog'liqni saqlash markazi, bank xizmati, bolalar bog'chasi.

Mid Amerika Industrial Park o'z hududida quydagiilarga ega: o'quv markazlari, sog'liqni saqlash klinikasi, savdo markazi, avariya xizmati, rezidentlar uchun ikkita gaz kompaniyasi, ko'rgazma zali, biznes inkubator,mintaqaviy aeroport.

Xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra, industrial parklar o'rtaida rezidentlarni jalg etish bo'yicha raqobat mavjudligini kuzatish mumkin. Chunki mintaqqa sanoat zonasiga, uning rivojlanish kontseptsiyasiga ko'ra, qancha ko'p rezidentlar joylashsa, mintaqaning iqtisodiy rivojlanish imkoniyati shuncha oshadi, bu o'z navbatida, mintaqqa byudjetiga tushum ortishiga va uning ijtimoiy rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida qiyosiy tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda tashkil etilayotgan KSZlarning zaif tomonlarini quydagilar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, ularda texnologik, innovatsion rivojlanish darajasipastligi.

Ikkinchidan, KSZlarni shahar, shahar cheti va tuman hududlarida joylashtirishda differentsial, ilmiy asoslangan yondashuv mavjud emasligi.

Uchinchidan, KSZlarni mahsulot ishlab chiqarishning texnologik darajasi, innovatsiyalardan foydalanish darajasiga ko'ra shakllantirish va qo'llab-quvvatlash yo'lga qo'yilmaganligi.

To'rtinchidan, KSZlarni ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar bilan hamkorlik aloqasi yo'lga qo'yilmaganligi, texnopark, biznes inkubatorlarni tashkil etish va rivojlantirish yo'lga qo'yilmaganligi. SHuning uchun ham, KSZlarning texnologik va innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi mexanizmlarni aniqlab, ularning faol ishlashini ta'minlash bugunning strategik masalalaridan biri hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasida industrial parklarni qo'llab-quvvatlashdadavlat-xususiy sektor sherikchiligidan O'zbekiston sharoitida KSZlarni barpo etish va rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Industrial zonalar va ularda joylashtiriladigan loyihalarni "rag'batlantiriladigan" loyiha, "rag'batlantiriladigan" zona va "rag'batlantirilishi muhim" loyiha, "rag'batlantirilishi muhim" zonalarga ajratib, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning Vietnam tajribasi ham juda qiziqarli deb o'ylaymiz. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash Frantsiya tajribasining bir qator bandlaridan respublikamizda KSZlarni, kichik biznesni rivojlantirishda foydalanishi samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, kichik biznesni 2 yilga foyda solig'idan ozod etilgandan keyingi soliqni bosqichma-bosqich kamaytirish, imtiyozli qarz berish, tezkor amartizatsiya, yangi texnologiyani joriy etish, energiyani tejash, import o'rnninibosish, eksportni oshirishga olib keluvchi investitsiyalar uchun imtiyozlarni yaratish, KSZlarni barqaror, yuqori texnologiyaga asoslangan holda rivojlantirishga erishish mumkin bo'lardi.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Abduvoxidov A., Kamilova S. (2024) RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YOSHLAR BANDLIGI VA MUNOSIB MEHNATNING KONTSEPTUAL ASOSLARI //Iqtisodiyot va ta'lim. – T. 25. – №. 2. – C. 73-82.

Agarwal A. (2007) Impact of SEZ on Employment, Poverty and Human Development. Worning paper. 194. CIER, May.

Athukorala P., Tien T. Q. (2010) Foreign direct investment in industrial transition: the experience of Vietnam //The Rise of Asia. – Routledge, – C. 229-251.

Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-58-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni

Millberg W., Amengual M. (2008) Economic Development and Working Conditions in Export Processing Zones: A Survey of Trends. ILO Office, Geneva, -68 p

Ning L., Wang F., Li J. (2016) Urban innovation, regional externalities of foreign direct investment and industrial agglomeration: Evidence from Chinese cities //Research Policy. – T. 45. – №. 4. – C. 830-843.

Nizom (2020) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagি 134-son bilan tasdiqlangan "Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi Nizom"dan. <https://lex.uz/docs/4758585>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3-Toshkent xalqaro investitsion forumida so'zlagan nutqi, www.aza.uz

Salimov B.T., Salimov B.B. (2020) "Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish". – T.: Iqtisodiyot, – 135 b

Saracoglu B.O. (2013) Selecting industrial investment locations in master plans of countries //European Journal of Industrial Engineering. – T. 7. – №. 4. – C. 416-441.

Абдувохидов А. А. и др. (2022) САНОАТ СИЁСАТИНИИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI. – Т. 2. – №. 5. – С. 40-45.

Абдувохидов А.А., Тошбоев Б.Б. (2021) Худудда импорт ўрнини босиши сиёсатини амалга ошириш механизми //Журнал Инновации в Экономике. – Т. 4. – №. 10.

Арсланбеков С.М. (2023) КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ //Journal of new century innovations. – Т. 21. – №. 2. – С. 160-162.

Варнавский В.Г. (2015) Частно-государственное партнерство в промышленности России //Вестник Института экономики Российской академии наук. – №. 5. – С. 41-54.

Драгунова Е. В. (2004) Формирование стратегии развития малого промышленного предприятия: дис. – Новосибирск: [Новосиб. гос. техн. ун-т].

Маннапова Ш.Э. (2023) Кичик саноат зоналарида инвестицион самарадорликни оширишнинг синергетик модели аҳамияти //Science and Education. – Т. 4. – №. 2. – С. 1599-1606.

Маннапова Ш.Э. (2024) Ўзбекистон кичик саноат зоналарида инвестицион фаолликни ошириш ўйналишлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Т.: ТМИ.

Некрасова И.В., Свиридов О.Ю. (2017) Государственное финансирование индустриальных парков и технопарков как основной элемент промышленной политики России //Финансовые исследования. – №. 4 (57). – С. 110-121.

Рахмонқулова Н.О. (2023) КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ // " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал. – Т. 6. – №. 14.

Сакиева О.Б. (2023) КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ФАОЛИЯТИ САМАРАДОРЛИГИ МОНИТОРИНГИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ВА УЛАРНИ БАҲОЛАШ КЎРСАТКИЧЛАР ТИЗИМИ //Gospodarka i Innowacje. – Т. 35. – С. 608-614.

Смольянинова Т.Ю. (2015) Индустриальные парки в региональной экономике: механизм создания, преспективы развития. Автореферат диссертации. – Воронеж.

Хамрақулов Ихтиёр Бахтиёрович (2024) КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ИМКОНИЯТЛАРИ // CARJIS. 2022. №Special Issue 2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-sanoat-zonalari-investitsion-faolligini-oshirishning-strategik_imkoniyatlari (дата обращения: 21.05.2024).

Юлдашев Р. (2017) Кичик саноат зоналари иқтисодий тараққиёт ва халқ турмуш фаровонлигининг муҳим воситасидир. "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. № 4, август.

Явмутов Д. Ш., Ракҳманқулова Н. О. (2021) Бухоро Вилоятида Кичик Саноат Зоналарининг Ривожланиши //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – Т. 1. – №. 2. – С. 10-13.